

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 338.32.053.4

**XUSANOVA MALOHAT MENGNOVNA
SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHNING
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13-Menejment

08.00.03-Sanoat iqtisodiyoti

Iqtisodiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DESERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: i.f.d., dotsent. O.J.Djurabayev

Toshkent-2025 yil

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	12
1.1-§. O‘zbekistonda sanoat korxonalarini rivojlantirishning nazariy jihatlar.....	12
1.2-§. Sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarish jarayonlariga yondashuvlar va unda boshqaruv usullarining ahamiyati.....	25
1.3§. Sanoat korxonalarini faoliyatini boshqarishda menejment usullaridan foydalanishning afzalliklari.....	38
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.....	50
II-BOB. O‘ZBEKISTONDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV MEXANIZMLARI SAMARADORLIKLARI TAHLILI.....	53
2.1-§. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlarining rivojlanish tendendiyalaridagi o‘zgarishlar tahlili.....	53
2.2-§. Sanoat korxonalarini boshqaruv jarayonlari samaradorligini bozor instrumentlari vositasida baholash	68
2.3-§. Sanoat korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga omillar ta’siri	81
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	96
III-BOB. SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH HAMDA MODELLASHTIRISH	99
3.1-§. Sanoat tarmoqlari boshqaruv jarayonlarini boshqarishda ko‘p omilli iqtisodiy statistik modellardan foydalanish.....	105
3.2-§. Sanoat korxonalarini faoliyatini innovatsion boshqaruvi samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	112
3.3-§. Sanoat korxonalarini iqtisodiy barqarorligini boshqarish siyosati asosida tarmoqni strategik rivojlantirish istiqbollari.....	124
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	128
XULOSA VA TAKLIFLAR	141
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	145
ILOVALAR.....	155

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligiva zarurati. Jahonda globbalshuv va raqobat jarayonlarining keskinlashuvi sharoitida sanoat tarmoqlarida faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv jarayonlarining samaradorligini baholash, boshqaruv tamoyillarini kompleks tadbiq etishning ahamiyati oshib bormoqda. “Jahon mamlakatlari tomonidan yaratilgan yalpi mahsulot hajmining ortib borishi uning asosiy tarmoqlari, xususan sanoat ishlab chiqarishi hajmining ortib borishi bilan kuzatilmoqda. Dunyo mamlakatlari tomonidan yaratilgan yalpi sanoat mahsuloti hajmi 2022-yilda 2010-yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 51,6 foizga ortib (10,6 trln. AQSH dollaridan 16,0 AQSH dollariga), yaqin kelajakda xizmatlar sohasining multiplikativ samarasi ta’sirida yana 10-12 foizga ortishi kutilmoqda”¹. Jahon iqtisodiyotining rivojlanishida sanoat tarmoqlari bilan xizmatlar sohasining vertical hamda gorizontal birikkan shaklidagi boshqaruv tuzilmasiga ega bo‘lgan yirik korporativ sanoat tuzilmalari yirik transmilliy korporatsiyalar shaklida dunyo mamlakatlarining sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talabini kengroq ko‘lamda qondirib borayotganligi ushbu iqtisodiy tuzilmalarda qo‘llanilayotgan boshqaruvning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganish va shu asosda milliy sanoat korxonalari qo‘llanilayotgan boshqaruv uslubiyatini takomillashtirishni talab etadi.

Jahonda bugungi davrgacha sanoat korxonalarida boshqaruvning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda sanoat korxonalari faoliyatini boshqarish jarayonlariga yondashuvlar, boshqaruv jarayonida bozor instrumentlarining amal qilishi qo‘llanilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarga omillar ta’siri, ushbu mexanizmlarning innovatsion faollikni rag‘batlantirish xususiyatlari sanoat korxonalarining iqtisodiy barqarorligini boshqarish asosida ularning strategik rivojlantirish yo‘nalishlarini aniqlash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

¹ <https://wdi.worldbank.org/table/4.3>

O‘zbekistonda iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan hisoblangan sanoat tarmog‘ini modernizatsiyalash hamda barqaror rivojlantirishga qaratilgan islohotlar tarkibida sanoat korxonalarida boshqaruv jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sinh sur‘ratlarini ta’minlash” deb nomlangan III-yo‘nalishining 22-maqsadida “sanoatning yetakchi tarmoqlari va iqtisodiyotni yanada liberallashtirish hamda transformatsiya jarayonlarini yakunlash” asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan bo‘lib, navbatdagi 23-25-maqсадlarda sanoat tarmoqlarining moddiy hamda moliyaviy tarmoqlarini kuchaytirish masalasi bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan². Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi sanoat korxonalarida boshqaruv jarayonlarinign tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son <<Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida>>gi, 2022-yil 21-dekabrdagi PF-269-son “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 1-maydagi PQ-4302-son “sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son <<2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini taqsdqlash to‘g‘risida>>gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinign 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. <https://lex.uz/docs/5841063#5844066>

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muommoning o‘rganilganlik darajasi. Sanoat korxonalarida boshqaruv jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularda boshqaruv samaradorligini baholash masalalari xorijlik olimlardan T.Altenburg, Y.Shumpetr, L.Szyu, S.Cheng, M.Meskon, F.Xedoure, P.Druker, J.Xarter, L.Yakkoka, J.Etkinsonlar ilmiy izlanishlarda mazkur masalalar tadqiq etilgan³.

MDH olimlaridan I.Ansoff, I.Gerchikova, G.Goltshteyn, O.Bratkova, D.Strelsova, O.Vodneva, S.Popov, A.Rochkov, S.Gnatyuk, L.Pushkina, V.Juravlyov, N.Varkova, N.Juravliyov, O.Averina, A.Radchenkoning tadqiqotlarida sanoat tarmog‘i va uning tarkibidagi korxonalarda boshqaruv jarayonlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan⁴.

³ Altenburg T. Industrial Policy in Developing Countries. Bonn, 2011. 101 p.; Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development: An Inquiry into profits, capital, Credit, Interest, and the business Cycle. – Cambridge: Harvard university Press, 1934. – 455 p.; Zhu L., Cheung S.O. Harvesting Competitiveness through Building Organizational Innovation Capacity // Journal of Management in Engineering. – Vol. 33 2017.-№5. 04017020.; Мескон М.Х., Алберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. / пер. с англ. -М.: Дело, 2000.; Друкер, П. Менеджмент. Вызовы XXI века / П.Друкер Москва : Манн. Иванов и Фербер, 2012. - 456 с.; Хартер, Дж. 12 элементов успешного менеджмента / Дж. Хартер. Р. Валкер. Москва: Алпина, 2008. -411 с.; Якокка, Ли Карера менеджера / Л.Якокка и У Новак : пер с англ С.Е.Борич. -4-е изд. -Минск : Попурри, 2011. -544 с.

⁴ Ансофф, И. Стратегическое управление / И. Ансофф. - Москва: Экономика, 1989. - 519 с.; Герчикова И.Н. Менеджмент / И.Н.Герчикова. - Москва: Юнити-Дана, 2009. 412 с.; Голдштейн, Г. Я. Основы менеджмента: учеб. пособие. - изд 2-е, доп. и перераб. / Г.Я.Голдштейн. - Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2003. - 293 с.; Браткова О.В. Управление устойчивым развитием промышленного предприятия/О.В. Браткова, В.Ф. Гапоненко.-М.: Компания Спутник +, 2006.; стрелцова Д. А. Организационно-экономический механизм управления затратами машиностроительных предприятий // Бизнес. Образование. Право. 2020. 2 (51). С. 154-160. DOI: 10.25683/VOLBI.2020.51.252.; Воднева О. И., Попов С. М., Рожков А. А. Формирование организационно-экономического механизма устойчивого развития экспортно-ориентированных угольных компаний // Угол. 2019. № 7 (1120). С. 98-102. DOI: 10.18796/0041-5790-2019-7-98-102.; Гнатюк С. Н., Пушкина Л.И. Алгоритм диагностики устойчивого развития предприятия // Проблемы экономики. 2019. №1 (28). С.51-65.; Журавлев В.В., Варкова Н.Ю., Журавлев Н.Б. Совершенствование системы управления рисками промышленного предприятия // Вестник ЮУрГУ. Серия «Экономика и менеджмент». 2022.; Аверина О.И. Анализ и оценка устойчивого развития предприятия // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2016.;